

Kecha, Termiz shahridagi 27-Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.



Kecha, Termiz shahridagi 27-Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda Termiz shahar hokimligi, shahar maktabgacha ta'lim bo'limi, shahar madaniyat bo'limi va ota-onalar ishtirok etishdi. Dastlab, Termiz shahar maktabgacha ta'lim bo'limi rahbari A.Xolto'raeva so'zlab, bolajonlarni yangi ta'lim muassasasi bilan qutladi. Shundan so'ng, Termiz shahar madaniyat bo'limi ijodiy jamosining yosh estrada xonandalari kuylagan qo'shiqlari tashrif buyurganlarga xushkayfiyat ulashdi.

